«TASDIQLAYMAN»
“O‘zmilliybank”AJ
Banklararo hisob-kitob
markazi direktori
Qodirov F.N.

“15” may 2026 y.

“O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ
Banklararo hisob-kitob markazi direktori rahbarligida o‘tkazilgan
___ - sonli yig‘ilish
BAYONI

2026 yil « 15 » may Toshkent shahri

Raislik qildi: Banklararo hisob-kitob markazi direktori

Qatnashdilar: Banklararo hisob-kitob markazi xodimlari va Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi xodimlari

KUN TARTIBI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 26 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazish.
2. Bank tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlarni kuchaytirish.
3. Xodimlarda qonun ustuvorligi, xizmat intizomi, korporativ etika va shaxsiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash.
4. Komplayens nazorati, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va bank nufuzini himoya qilish bo‘yicha amaliy tushuntirishlar berish.

Mashg‘ulotni Banklararo hisob-kitob markazi direktori Qodirov F.N. ochib berib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasidagi eng ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligini ta’kidladi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bildirilgan: “Takror va takror aytaman. Korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid” degan fikrlar har bir bank xodimi uchun xizmat faoliyatida amal qilinishi shart bo‘lgan asosiy tamoyil ekanligi qayd etildi.

Shuningdek, "Korrupsiyaga yo'l qo'yish esa – islohotlarimizga xiyonatdir" degan qat'iy talabdan kelib chiqib, tizimda halollik, ochiqlik va shaxsiy javobgarlik muhitini yanada kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Mashg'ulot davomida bank tizimida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavflar, jumladan:

• kredit ajratish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvi;

• mijozlar bilan ishlashda tamagirlik va poraxo'rlik;

• xizmat vakolatini suiiste'mol qilish;

• ichki ma'lumotlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish;

• tender va xarid jarayonlarida shaffoflikning buzilishi;

kabi holatlar atroflicha muhokama qilinib, ularning oldini olish bo'yicha aniq choralar belgilandi.

Alohida ta'kidlanganidek, "Lavozimim, unvonim bor, menga hech kim tegmaydi", deganlar adashadi. Qonun oldida hamma teng!" degan talab barcha rahbar va xodimlar uchun birdek tatbiq etiladi.

Shu munosabat bilan ishtirokchilarga:

• xizmat vazifalarini halol va vijdonan bajarish;

• mijozlar bilan munosabatlarda kasb odobiga qat'iy rioya qilish;

• har qanday noqonuniy takliflarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish;

• shubhali holatlar haqida zudlik bilan komplayens xizmati yoki rahbariyatni xabardor qilish;

• ichki normativ hujjatlarga so'zsiz amal qilish zarurligi bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi mas'ul xodimlari tomonidan ichki nazorat mexanizmlari, xavflarni baholash tizimi, anonim murojaat kanallari, profilaktik choralar hamda korrupsiya to'g'risida xabar bergan xodimlarning xavfsizlik kafolatlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Shu bilan birga, "Komplayens xizmatining faoliyatiga to'sqinlik qilganlar – korrupsiyaga sherik, deb baholanadi" degan talabdan kelib chiqib, nazorat jarayonlariga to'sqinlik qilish yoki ma'lumotlarni yashirish jiddiy javobgarlikka sabab bo'lishi to'g'risida ogohlantirildi.

Mashg'ulotda korrupsiyaning oldini olishda, eng avvalo, rahbarlarning shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlandi.

Qayd etilganidek, jamoada halollik, intizom va qonuniylik muhitini shakllantirish, birinchi navbatda, rahbarlarning ochiqlik, adolat va prinsipiallik tamoyillariga amal qilishiga bog'liqdir.

Xususan, rahbarlar:

• jamoaga shaxsiy ibrat bo'lishi;

• xizmat vakolatidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanmasligi;

• qaror qabul qilishda xolislik va shaffoflikni ta'minlashi;

• tanish-bilishchilik va guruhbozlikka yo'l qo'ymasligi;

• sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishi;

• qonunbuzilishlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, "Davlatning har bir so'm mablag'i, resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi" degan talabdan kelib chiqib, moliyaviy operatsiyalar, kredit ajratish va ichki nazorat jarayonlarida qonuniylikka qat'iy rioya etilishi shart ekanligi qayd etildi.

Barcha xodimlarni ogohlik va mas'uliyatga chaqirgan holda, xayot va mehnat faoliyati davomida noqonuniy ishlarga va uyushgan guruhlarga aralashmaslik, korrupsiya va firibgarlikni o'ziga kasb qilib olgan elementlardan yiroq bo'lish, bu kabi holatlarga duch kelinganda zudlik bilan rahbarlari yoki korrupsiyaga qarshi tizim mas'ullarini xabardor qilish, xizmat faoliyati davomida hamda ishdan tashqari holatlarda, ayniqsa keng jamoatchilik orasida namunaviy shaxs sifatida namoyon bo'lishga intilish, noqonuniy ishlarga aralashmaslik, odob-ahloq qoidalariga rioya qilish, o'zi va oilasi sha'nini yuqori darajada ushlash lozimligi, eng asosiysi yuqori nufuzli idorada faoliyat yuritayotganligini unutmasliklari lozimligi haqida alohida to'xtalib, bu kabilarga amal qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi to'g'risida o'z fikrlarini bildirdi.

Shu bilan birga, Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi xodimlari yig'ilish davomida "O'zmilliybank" AJda Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi mavjudligini yana bir bor eslatib, mazkur yo'nalishda yuzaga kelayotgan yoki shakllanayotgan noqonuniy elementlar yoki shu kabi ishlarni taklif etayotgan shaxslar to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni kechiktirmay taqdim etish maqsadga muvofiqligi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida ushbu tizim tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallarini, tegishli ma'lumotlarni mas'uliyat bilan o'rganish va doimiy ravishda malaka oshirib borishlari, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishlari lozimligi to'g'risida eslatmalar berib o'tdi.

QAROR QILINDI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida belgilangan vazifalar barcha xodimlar tomonidan chuqur o'rganilib, amalda ta'minlansin.
2. Korrupsiya, firibgarlik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa qonunbuzilishlarga nisbatan murosasiz munosabat shakllantirilsin.
3. Komplayens nazorati va profilaktik ishlar yanada kuchaytirilsin.
4. Xodimlarning huquqiy savodxonligi va kasbiy malakasini oshirish maqsadida doimiy seminar, trening va amaliy mashg'ulotlar tashkil etilsin.
5. Rahbarlar tomonidan sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, xizmat intizomi va korporativ madaniyatni mustahkamlash bo'yicha tushuntirish ishlari tizimli ravishda olib borilsin.
6. Bank sha'ni va nufuziga putur yetkazuvchi har qanday harakatlarning oldini olish choralari kuchaytirilsin.
7. Mazkur bayonnomada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash tegishli rahbarlar zimmasiga yuklatilib, umumiy nazorat Banklararo hisob-kitob markazi rahbariyati tomonidan amalga oshirilsin.

2026 yil "15"may kunidagi
_____-sonli yig'ilish
bayonnomasiga ilova

T A N I SH D I L A R:

№	F.I.Sh.	Lavozimi	Imzo	Sana
1	Irisboyev Sodiq Oqmirzayevich	BHKM direktori birinchi o'rinbosari		15.05.26г
2	Ziyaxanova Nigora Askarovna	BHKM direktori o'rinbosari		15.05.26г
3	Bobojonova Umida Mansurovna	BHKM bosh buxgalteri		15.05.26г
4	Turabekov Bekzod Mirxasilovich	Bosh buxgalter o'rinbosari		15.05.26.
5	Alamova Kamila Ildar qizi	Ish yurituvchi		15.05.26г.
6	Latipova Dina Vafilyevna	Bo'lim boshlig'i		15.05.26
7	Lutfraxmanova Farida Vakilovna	Bosh mutaxassis		15.05.26
8	Berdimuratov Sultanbek Azatovich	Bosh mutaxassis		15.05.26
9	Yusupova Shaxnoza Baxodirovna	Bo'lim boshlig'i		15.05.26
10	Raximova Zulfiya Shavkatovna	Bosh mutaxassis		15.05.26
11	Matkarimov Bunyod Sur'atbek o'g'li	Bosh mutaxassis		15.05.26
12	Xasanov Jaxongir Jamshidovich	Yetakchi mutaxassis		отпуск
13	Bolabekova Nazima Kaxramonovna	Bosh mutaxassis		15.05.26
14	Abdullaev Abdushukur Raxmatulla o'g'li	1-toifali mutaxassis		15.05.26.
15	Toshxo'jayev Shaxzot Shafkatilloyevich	Bo'lim boshlig'i		
16	Murtazayev Shaxriyor Muxiddinali o'g'li	Yetakchi mutaxassis		15.05.26

17	Adxamjonov Xumayun Ravshanbekovich	1-toifali mutaxassis		
18	Pavlova Marina Vasilyevna	Kassa mudiri		15.05.26.
19	Muradova Noila Mirzaxamitovna	Yetakchi kassir		15.05.26.
20	Latipova Zulfiya Fardatovna	Yetakchi kassir		15.05.26
21	Sharopov Ulugbek Xalimovich	Boshqarma boshlig'i		15.05.26
22	Artikova Adelya Damirovna	Bo'lim boshlig'i		15.05.26
23	Karimova Kamila Ulugbekovna	Bosh mutaxassis		15.05.26
24	Asqarov Abbos Botir o'g'li	Yetakchi mutaxassis		15.05.26.
25	Sabirova Zarina Iskanderovna	Bo'lim boshlig'i		отпуск
26	Sklyarevskaya Yekaterina Yevgenyevna	Bosh mutaxassis		15.05.26
27	Xegay Inna Gennadyevna	Bosh mutaxassis		15.05.26
28	Komilov Davron Komil o'g'li	Boshqarma boshlig'i		15.05.26.
29	Kadirov Izzatullo Raxmatulloyevich	Mijozlar bilan ishlash katta menejeri		15.05.26
30	Asadov Iskandarxo'ja Sodir o'g'li	Mijozlar bilan ishlash katta menejeri		15.05.26
33	Tursoatov Bekzod Bekmuratovich	Bo'lim boshlig'i		15.05.26
34	Tuychiev Sherzod Sakidjanovich	Boshqarma boshlig'I - BHKM direktori o'rinbosari		15.05.26
35	Raxmatullayev Avaz Adxamovich	Boshqarma boshlig'I - BHKM direktori o'rinbosari		15.05.26
36	Sirayeva Nodira Petrovna	Bo'lim boshlig'i		15.05.2026

37	Ataxodjayeva Aziza Ravshanovna	Bosh mutaxassis		15.05.26
38	Solijonov Nodirbek Nosirbek o'g'li	Bosh mutaxassis		отпуск
39	Abdiraxmonov Sanjar Asat o'g'li	Yetakchi mutaxassis		15.05.26
40	Azizov Mirakmal Mirabbos o'g'li	Boshqarma boshlig'i o'rinbosari		отпуск
41	Miraxmedova Gulnoza Xakimovna	Bo'lim boshlig'i o'rinbosari		15.05
42	Xudoyorov Temurbek Ilhomjon O'G'Li	Bosh mutaxassis		15.05
43	Jalilov Jamshid Rustambek o'g'li	Bosh mutaxassis		отпуск
44	Tilavov Elbek Otabek o'g'li	Yetakchi mutaxassis		15.05
45	Pardayev Shaxzod Shavkat o'g'li	Yetakchi mutaxassis		15.05.26
46	Eshqo'ziyev Otabek Baxodir o'g'li	Yetakchi mutaxassis		15.05.26
47	Irgashev Nodir Farxodovich	Bo'lim boshlig'i		15.05.26г.
48	Rustamova Ziyoda Saydulla qizi	Bosh mutaxassis		15.05.26
49	Mirzakarimov Mirmuhammad Diyorbek o'g'li	Yetakchi mutaxassis		отпуск
50	Varisxanov Temur Rustamovich	Bosh mutaxassis		15.05.26
51	Abdurayimov Samadulla G'ayratjon o'g'li	Yetakchi mutaxassis		15.05.26.